

44. Uch xonali sonlarning nomlanishi va yozilishi

Yondosh mavzu:
YPX xodimlari

Uch xonali sonlar
yuzliklar, o'nliklar, birliklar




sehrli kvadrat

7	?	3
?	9	?
15	?	?

1. Aniqlang:

- Noyabr oyida qanday yo'l hodisalari ko'proq sodir boldi?
- Qaysi oyda piyodalar bilan yo'l transport hodisasi kam sodir bo'lgan?
- Noyabrdan dekabrgacha piyodalar bilan YTH holatlari qancha kam bo'lgan?



- – qizil chiroqda o'tish;
- – piyodoni urib ketish;
- – harakat tezligini oshirish.

2. Rasm yordamida YPX xodimlari uchun nechta jezlar keltirilganligini aniqlang.

$200 + 3$
2 yuzl. 0 o'nl. 3 birl.
203



3. Har bir ustundagi sonlarni o'qing. Ularning umumiy jihatlari nimada va nima bilan farqlandi?

604
406

208
802

501
105

307
703



4. Namuna bo'yicha hisoblang:

$$700 + 6 = 7 \text{ yuzl. } 6 \text{ birl.} = 706$$

$$400 + 8$$

$$300 + 7$$

$$900 + 6$$

$$100 + 9$$



5. Ertalab soat 7 dan 8 gacha DYX posti orqali 3 yuzta avtomobil, ertalab soat 8 dan 9 gacha esa undan 100 ta ko'p avtomobil o'tdi. Ikki soat ichida post orqali qancha avtomobil o'tdi?



6. Toshkentdan ko'rsatilgan shaharlarning har birigacha bo'lgan masofani aniqlang. Ularning har birigacha nechta butun yuzlik kilometr?



Andijon	> 447 kilometr
Buxoro	> 600 kilometr
Jizzax	> 203 kilometr
Qarshi	> 558 kilometr
Navoiy	> 509 kilometr
Namangan	> 432 kilometr
Samarqand	> 300 kilometr
Termiz	> 708 kilometr
Farg'ona	> 419 kilometr



7. Har bir belgining barcha tomonlari teng. Bu belgilarning perimetrlarini toping.



7 dm



3 dm



6 dm



8. Hisoblang.

$$400 + 5$$

$$300 + 2$$

$$600 + 7$$

$$700 + 1$$

$$600 + 4$$

$$900 + 3$$



9. Kun davomida YPX xodimi 65 ta yengil va 28 ta yuk mashinasini tekshirdi. Inspektor jami qancha mashinani tekshirdi?